**Abstract.** The article analyzes methodological approaches to improving the effectiveness of investment and state support in the development of Uzbekistan's sericulture sector. The study proposes a step-by-step investment model along the value chain: raw material cultivation, cocoon processing and thread production, fabric and finished goods manufacturing, design, and export infrastructure. This model ensures coordinated participation of the state and the private sector, enabling the transformation of the sector into a high-value, export-oriented industry through digital monitoring, ESG standards, and financing mechanisms based on social and economic efficiency. The paper also highlights pathways for ensuring sustainable development of sericulture clusters, creating stable employment for women and youth, and increasing rural household incomes.

**Key words:** sericulture, investment, state support, value chain, ESG, cluster, digital monitoring, export-oriented products, social efficiency, raw material processing.

**Аннотация.** В статье проанализированы методологические подходы к повышению эффективности инвестиций и государственной поддержки в развитии шелководства Узбекистана. В исследовании предложена поэтапная модель инвестирования по цепочке добавленной стоимости: выращивание сырья, первичная переработка и производство нити, выпуск ткани и готовой продукции, дизайн и экспортная инфраструктура. Данная модель обеспечивает согласованное участие государства и частного сектора и позволяет трансформировать отрасль в высокодоходную экспортно-ориентированную индустрию за счёт цифрового мониторинга, стандартов ESG и механизмов финансирования, основанных на социально-экономической эффективности. Показаны пути обеспечения устойчивого развития шелководческих кластеров, создания стабильных рабочих мест для женщин и молодёжи, а также повышения доходов сельского населения.

**Ключевые слова:** шелководство, инвестиции, государственная поддержка, цепочка добавленной стоимости, ESG, кластер, цифровой мониторинг, экспортная продукция, социальная эффективность, переработка сырья.



## KIRISH

So'nggi besh yil mobaynida O'zbekistonning ipakchilik sohasiga yo'naltirilgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etib, tarmoqni modernizatsiya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Kelgusida bu imkoniyatlarni yanada samarali realizatsiya qilish uchun investitsiya oqimlarini qiymat zanjiri bo'ylab muvozanatli taqsimlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Ayni paytda investitsiyalar asosan tuztorlar barpo etish va pilla yetishtirish kabi birlamchi bosqichlarda jamlangan bo'lsa-da, bu holat chuqur qayta ishlash, dizayn va tayyor mahsulot ishlab chiqarish yo'nalishlarini rag'batlantirish orqali yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatini yanada kengaytirishni taqozo etmoqda. Ushbu bosqichlarda kapital aylanish davri uzoqroq bo'lgani sababli, kelgusida xususiy investorlar uchun barqaror kafolatlar va aniq iqtisodiy mexanizmlar joriy etilishi ularning ishtirokini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan budget dasturlarini klaster yondashuviga yanada moslashtirish istiqbolda tarmoqda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Grantlar, imtiyozli kreditlar va subsidiyalarni taqsimlashda ko'p bosqichli qiymat zanjirining o'zaro bog'liqligini kuchaytiruvchi mezonlar joriy etilishi davlat qo'llovi natijadorligini mustahkamlash imkonini beradi. Bu orqali monitoring va nazorat mexanizmlarining yaxlitlashuvi, moliyalashtirilayotgan loyihalarning integratsiya darajasini oshirishi kutilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarmoq bo'yicha investitsiya oqimlarini "birlamchi ishlov — chuqur qayta ishlash — tayyor mahsulot — eksport" zanjiri bilan uyg'unlashtirish istiqbolda nafaqat innovatsion salohiyatni, balki xalqaro raqobatbardoshlikni ham oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribada Italiyaning Komo viloyati va Xitoyning Chjeszyan provinsiyasidagi kabi davlat qo'llovi xususiy sarmoyaning ko'payishida ko'paytiruvchi ta'sir ko'rsatgani kuzatilgan. Shu kabi mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish O'zbekistonda 2030-yilga qadar xom ipak ulushini sezilarli darajada qisqartirish hamda yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga xizmat qiladi. Kelgusida investitsiya siyosatini takomillashtirish, davlat dasturlarini modernizatsiya qilish va klasterlar integratsiyasini chuqurlashtirish tarmoqning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlaydi.

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotda quyidagi yo'nalishlar batafsil o'rganiladi. Birinchidan, investitsiyalarni tarmoqning har bir bosqichiga mos ravishda taqsimlash talab etiladi. Buning uchun klaster tuzilmasi asosida xarajat turlari, ya'ni asosiy vositalarga va joriy ishlab chiqarish ehtiyojlariga yo'naltiriladigan mablag'lar o'rtasida mutanosiblikka erishish zarur.

Ikkinchidan, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar xususiy sarmoyani keng jalb etishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, atrof-muhit va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olgan moliyalashtirish usullarini — "yashil moliya" yoki islomiy moliyaviy vositalar kabi mexanizmlarni joriy etish orqali davlat ko'magi xususiy sarmoyani rag'batlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

Uchinchidan, investitsiyalar va davlat mablag'larining samaradorligi real vaqt rejimida kuzatib borilishi lozim. Buning uchun raqamli kuzatuv tizimlari, xususan avtomatlashtirilgan hisob-kitob va boshqaruv dasturlarini tatbiq etish talab etiladi. Bu yondashuv orqali har bir sarmoyaning natijadorligi aniq baholanadi va davlat mablag'larining manzilliligi ta'minlanadi.

To'rtinchidan, ipakchilik tarmog'ida ishtirok etayotgan barcha tashkilot va muassasalar — ta'lim va ilmiy markazlar, tijorat banklari hamda klaster korxonalari o'rtasida muvofiqlashgan hamkorlik tizimini yaratish zarur. Buning uchun "bir darcha" tamoyili asosida ishlaydigan moliyaviy hamkorlik muhitini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'lib, bu tashkiliy barqarorlikni ta'minlaydi va axborot almashinuvi samaradorligini oshiradi.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar asosida investitsiya va davlat dasturlarini qayta tashkil etish tarmoqda texnologik yangilanish jarayonlarini jadallashtiradi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotni mamlakat ichida yaratish va saqlab qolish imkonini kengaytiradi hamda qishloq hududlarida barqaror ish o'rinlari va aholining daromad manbalarini oshirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pillachilik sohasining rivojlanishi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlarda agrar qiymat zanjiri, klasterlashuv, davlat qo'llovi va investitsiyalash mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi alohida o'rganilgan. Xitoy tajribasi serikultura bo'yicha eng boy ilmiy maktablarga ega bo'lib, Zhao, Zhang va Fang kabi tadqiqotchilar serikultura klasterlarida davlatning subsidiyalari, qayta ishlash quvvatlariga kiritilgan investitsiyalar va ilmiy innovatsiyalar eksport samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlarida davlatning texnologik modernizatsiyaga yo'naltirgan investitsiyalari ipak xom ashyosini chuqur qayta ishlash ulushini



sezilarli kengaytirgani, bu jarayon esa yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ulushining oshishiga xizmat qilgani ilmiy asoslangan.

Hindiston serikultura maktabining yirik olimlari Ravindra Kumar, G. Basavaraja va N. B. Vijaya Kumar milliy pillachilik tarmoqlarida investitsion oqimlar, kredit liniyalari, subsidiya paketlari va ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Ularning ishlarida kichik fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash dasturlari, ipak qurti boqish texnologiyalarining modernizatsiyasi va xususiy sektor investitsiyalarining oshishi mehnat unumdorligi va sanoat integratsiyasiga ijobiy hissa qo'shgani e'tirof etiladi. Shu bilan birga, pillachilikni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining bozor liberallashtirish bilan uyg'unlashtirilishi eksport hajmi va ichki klasterlar barqarorligiga ta'sir etishi ham iqtisodiy modellar asosida isbotlangan.

Turkiya tajribasini o'rganishga bag'ishlangan A. Baser va E. Öztürkning tadqiqotlarida ipakchilik tarmoqlari bo'yicha investitsiya loyihalarini baholash, klasterlar o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish va mintaqaviy rivojlanish dasturlarining institutsional samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Ular davlatning modernizatsiya fondlari va investitsiya grantlari ipakchilikda hududiy tengsizliklarni kamaytirishga yordam berganini ko'rsatadi. Shuningdek, Turkiya olimlarining izlanishlari bozorni diversifikatsiya qilish, marketing tizimlarini raqamlashtirish va eksportni sertifikatlashtirish bo'yicha normativ islohotlarning tarmoq raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini ta'kidlaydi.

Agrar qiymat zanjirlarini rivojlantirish nazariyasi bo'yicha Michael Porter, Kaplinsky va Morris tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar serikultura tarmoqlariga ham tatbiq etilgan bo'lib, ularda vertikal integratsiya, transaksion xarajatlarni qisqartirish, loyiha investitsiyalarining samaradorligini oshirish va davlat siyosatining koordinatsion roliga alohida urg'u beriladi. Ushbu nazariy asoslar pillachilik klasterlarida texnologik modernizatsiya va institutsional qo'llab-quvvatlashning investitsion jozibadorlikni oshirishdagi o'rni borasida chuqur ilmiy asos yaratadi.

Ushbu ilmiy manbalar pillachilik sohasini rivojlantirishda investitsiya va davlat ko'magining integrallashgan, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi. Jahon amaliyoti shuni tasdiqlaydiki, tarmoqda yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, eksportni kengaytirish va klasterlar raqobatbardoshligini ta'minlash investitsiya oqimlarining izchil boshqarilishi, modernizatsiya loyihalariga davlat qo'llovi va innovatsion infratuzilma rivoji bilan chambarchas bog'liq.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda pillachilik sohasiga oid ma'lumotlar rasmiy statistik bazalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy nashrlardan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar komparativ tahlil, trendlar dinamikasini baholash, klasterlashuv va investitsion oqimlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun iqtisodiy-statistik usullar orqali qayta ishlanib, tizimli tahlil yondashuvi asosida umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ipakchilik tarmog'ida moliyaviy qo'llov va davlat dasturlari samaradorligini tahlil qilgan xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kelgusida sarmoyani "birlamchi qayta ishlash – chuqur qayta ishlash – eksport" zanjiri bo'ylab mutanosib va bosqichma-bosqich yo'naltirish tarmoqning umumiy faktor samaradorligini yanada to'liq ochib berish imkonini beradi. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish quvvatlarini kompleks rivojlantirish, qo'shimcha qiymat yaratishni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha istiqboldagi natijalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yaponiyaning tarixiy pillachilik klasterlari bo'yicha olib borilgan tahlillar shundan dalolat beradiki, energiya tejankor texnologiyalarga bosqichma-bosqich o'tish natijasida mehnat unumdorligi 24 foizga, resurs tejami esa 18 foizga oshgan<sup>1</sup>. Italiyaning Komo viloyatida esa "muvozanatlashgan grant" (matching grant) modeli, ya'ni har bir xususiy sarmoya yevrosiga davlat tomonidan 30 yevrotsend subsidiya ajratish xususiy investitsiya hajmini 2,6 barobarga ko'paytirgan va klasterdagi eksport hajmi 30 foizga ortishiga xizmat qilgan<sup>2</sup>. Xitoyda esa ESG (ijtimoiy va ekologik mas'uliyat) ko'rsatkichlariga bog'langan imtiyozli kreditlar pillachilik mahsulotlarining eksport sifatiga 9–11 foiz ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlangan<sup>3</sup>.

1 <https://article.sapub.org/10.5923.j.jmea.20150501.04.html>

2 <https://www.dw.com/en/italian-silk-makers-confront-changes-in-luxury-market/a-5635373?>

3 Dan Ma, Yanjin Zhu, Yuhan Yang, How Green finance affects export production quality: Fresh evidence from China, Energy Economics, Volume 131, 2024, 107381, ISSN 0140-9883, <https://doi.org/10.1016/j.eneco.2024.107381>.



Ijtimoiy o'lchov nuqtayi nazaridan olib qaralganda, serikultura sohasi qator mamlakatlarda qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani kuzatilmoqda. Xususan, Hindiston misolida serikultura sohasi qishloq kambag'alligini kamaytirishda strategik tarmoq sifatida qayd etilmoqda. Mavjud empirik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu sohada 5,5 milliondan ortiq faol ishtirokchi mavjud bo'lib, ularning aksariyati ayollar va yoshlar qatlamiga mansubdir. Bu esa, tarmoqning gender tengligi va yoshlar bandligini ta'minlash borasidagi ijtimoiy funksiyalarini ham namoyon etadi<sup>4</sup>.

Mazkur natijalar serikultura yo'nalishida amalga oshirilgan maqsadli o'quv (capacity building) dasturlari va mikromoliyalash (microcredit) instrumentlarining multiplikativ ta'sirini ko'rsatadi. Xususan, pillachilik faoliyatiga jalb qilingan shaxslar uchun yaratilgan ta'lim va malaka oshirish kurslari hamda kam daromadli qatamlar uchun taqdim etilgan kichik miqdordagi imtiyozli kreditlar nafaqat bandlik darajasini oshirgan, balki ularning doimiy va barqaror daromad manbai bilan ta'minlanishiga turtki bo'lgan.

Bunday tajribalar asosida investitsiya siyosatini tarmoqning to'rt asosiy bosqichiga mos ravishda shakllantirish zaruriyati kelib chiqadi:

- 1-bosqich: Xom ashyo bazasi (tutzorlar va urug' yetishtirish). Agar tutzorlar barpo etish loyihalariga 10 yillik soliq imtiyozlari, 15 foiz miqdorida davlat kapitali hissasi (grant) ajratilishi va raqamli sensor (IoT) texnologiyalari joriy qilinishi ta'minlansa, yetishtiriladigan xom ashyoning barqarorligi va energiya samaradorligi oshishi mumkin.

- 2-bosqich: Dastlabki qayta ishlash (chig'irish). Imtiyozli kreditlar (masalan, foizi past kreditlar)ni ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarga bog'langan holda ajratish amaliyoti ishlab chiqarishda yo'qotishlarni 8–10 foizga kamaytirish imkonini beradi. Xitoydagi analog sexlar buni tasdiqlagan.

- 3-bosqich: Chuqur qayta ishlash (mato va biokomponentlar ishlab chiqarish). Italiya tajribasini inobatga olgan holda, davlat bilan xususiy sarmoyaning tengmuvozanat ishtirokini ta'minlovchi grantlar ushbu bosqichda sarmoya jalb etish tezligini oshirishi mumkin.

- 4-bosqich: Dizayn va eksport. "Silk Design Voucher" yoki shunga o'xshash eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy vositalar kichik brendlar uchun xalqaro bozorga chiqishda tranzaksion xarajatlarni kamaytirishi va tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Bu tuzilmaviy yondashuv tarmoqda sarmoyalarning izchillik va manzillilik asosida taqsimlanishini ta'minlab, umumiy investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, pillachilik tarmog'ida investitsiya va davlat dasturlari faqat mablag' ajratish vositasi sifatida emas, balki institutsional muvozanatni ta'minlovchi strategik vosita sifatida qaralishi lozim. Quyidagi tizimli yondashuv bu borada muhim ahamiyat kasb etadi:

- Subsidiya va grantlar xususiy sarmoya uchun "katalizator" vazifasini bajarishi kerak. Ya'ni davlat tomonidan taqdim etilayotgan yordam xususiy investor faolligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Komo (Italiya) modelidagi matching grant mexanizmi buning yaqqol namunasidir.

- ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) ko'rsatkichlariga bog'langan imtiyozlar eksport mahsulotlari sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xitoydagi tahlillar bu yondashuvning samarali ekanini ko'rsatib, "yashil" investitsiya siyosatining natijadorligini tasdiqlagan.

- Raqamli monitoring platformasi institutsional hisobdorlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Shu orqali investitsiyaning ta'siri real vaqtda aniqlanib, resurslar taqsimoti maqsadga muvofiq ravishda isloh qilib boriladi.

Shu jihatdan, O'zbekiston sharoitida pillachilik tarmog'i uchun bosqichli moliyalash (tiered finance) va raqamli monitoring asosidagi arxitekturani joriy etish milliy sharoitga mos, muvozanatli va samarali yechim hisoblanadi. Ushbu yondashuv institutsional va texnologik innovatsiyalar orqali tarmoqni yuqori qo'shimcha qiymatli, eksportga yo'naltirilgan, ijtimoiy samarali sanoatga aylantirish imkonini beradi.

Investitsiyalarni zanjirning barcha bosqichlariga mutanosib va tizimli ravishda yo'naltirish pillachilik sohasida samaradorlikni oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Pillachilik sohasida olib borilgan xalqaro ilmiy tadqiqotlar ushbu tarmoqning rivojlanishida investitsiya va davlat ko'magining qanday ta'sir ko'rsatishi, qaysi yondashuvlar natija berishi va qaysi muammolar sababli kutilgan samaraga erishilmayotganini ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqotlar tahlili asosida to'rtta muhim xulosa — metodologik saboqlarni shakllantirish mumkin. Mazkur saboqlar O'zbekistonda pillachilikni rivojlantirish strategiyasini qayta ko'rib chiqish uchun asos bo'la oladi (1-jadval).

4 <https://justagriculture.in/files/newsletter/2021/march/10.pdf?>

1-jadval. Pillachilik sohasini rivojlantirishda investitsiya va davlat ko'magiga oid metodologik yondashuvlar<sup>5</sup>

| O'rganilgan tajriba                                                                                                      | Qisqacha mazmun                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Bizga tegishli xulosa                                                                                                                                                                                           |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Investitsiya faqat pilla yetishtirishga emas, butun ishlab chiqarish zanjiriga qaratilishi zarur                         | Ko'pgina ilmiy manbalar (FAO, Asian Productivity Organization va boshqalar) pillachilikda yuqori samara faqat pilla yetishtirish bilan cheklanib qolmasdan, uni qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va bozorga chiqarish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Boshqacha aytganda, investitsiyalarni faqat boshlang'ich bosqichga emas, balki butun qiymat zanjiri — pilla yetishtirish, ip yechish, to'quv, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va dizaynga qaratish talab etiladi. | Investitsiyalar tarmoqning barcha bosqichlariga uzviy va rejali ravishda yo'naltirilishi lozim. Bu ishlanma aylanmasini yaxshilab, klaster ichidagi uzluksizlikni ta'minlaydi.                                  |
| Davlat ko'magi to'g'ridan-to'g'ri mablag' ajratish emas, xususiy investitsiyani rag'batlantiruvchi vosita bo'lishi kerak | Italiya, Xitoy, Turkiya kabi mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, davlatning asosiy roli mustaqil sarmoya egalari jalb qilishda yordam berishdan iborat. Masalan, faqat subsidiya berish emas, balki ma'lum shartlar asosida xususiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, masalan, eksport salohiyati, ekologik standartlar yoki ayollar bandligini oshirishga xizmat qiluvchi loyihalarga grant ajratish kabi yondashuvlar yuqori natija bermoqda.                                                          | Davlat dasturlari xususiy sektorni jalb qilishga qaratilgan bo'lishi, "hamkorlik asosida moliyalashtirish" tamoyiliga tayanish kerak.                                                                           |
| Pillachilik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaradorlikka ham ega                                                     | Hindiston, Vyetnam va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida ko'rinib turibdiki, pillachilik qishloq aholisi, ayniqsa ayollar va yoshlar uchun doimiy ish joyi va daromad manbai hisoblanadi. Hindistonda ushbu sohada 5,5 milliondan ortiq inson, jumladan, ayollar va yoshlar doimiy bandlik bilan ta'minlangan. Bu esa pillachilikni ijtimoiy taraqqiyot vositasi sifatida ham qarash mumkinligini ko'rsatadi.                                                                                          | Pillachilikka yo'naltiriladigan investitsiya va dasturlar faqat moliyaviy qaytimga emas, balki ijtimoiy samarasi aholi daromadi, gender tenglik va yoshlar imkoniyatlari ortishiga qarab ham baholanishi kerak. |
| Muvofiqlashgan va hamkorlikka asoslangan institutsional tizim samaradorlikni oshiradi                                    | Ipakchilik tarmog'i bir nechta tizimlar o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi, masalan, dehqon xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari, logistika markazlari, banklar va ta'lim muassasalari. Agar ushbu tuzilmalar o'rtasida muvofiqlik bo'lmasa, xatto katta mablag'lar ham kutilgan natijani bermaydi. Masalan, Xitoy va Turkiyada «birlashgan klaster boshqaruv markazlari» va raqamli platformalar orqali barcha ishtirokchilarni birlashtirish amaliyoti samara bermoqda.                                     | Pillachilikda barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida muvofiqlashgan, ochiq va raqamli hamkorlik tizimini joriy etish zarur.                                                                                       |

Jadvalda keltirilgan ushbu to'rt o'rganilgan tajriba (metodologik yondashuv) pillachilik sohasiga investitsiya va davlat ko'magi qay tarzda tashkil etilsa samarali bo'lishini anglashga yordam beradi. Birlamchi bosqichda sarmoya bilan cheklanib qolmaslik, davlatning xususiy sektorni rag'batlantiruvchi roli, ijtimoiy samaradorlikning inobatga olinishi va mutassadi tashkilotlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash — bularning barchasi pillachilik sohasini barqaror va samarali rivojlantirishda hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Shunday sharoitda, pillachilik tarmog'ining barcha funksional va institutsional bosqichlarini qamrab olgan uzviy va mutanosib investitsiya siyosatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir bosqich uchun moslashgan moliyaviy instrumentlar, me'yoriy-huquqiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va sifat standartlari birgalikda, tizimli tarzda joriy etilishi lozim. Bu sarmoyalarni faqat ayrim elementlarga emas, balki klasterning barcha bo'g'inlariga integral yo'naltirish, ya'ni klasterning barcha darajalarida funksional rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, pillachilik klasterining qiymat zanjiri asosida bosqichma-bosqich institutsional investitsiyalash modeli taklif etilmoqda. Ushbu model tarmoqdagi har bir bosqichning iqtisodiy ahamiyati, institutsional xususiyatlari va funksional ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Unda davlat va xususiy sektor ishtirokini muvofiqlashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish, ekologik va sifat standartlarini ta'minlash hamda eksport infratuzilmasini kuchaytirish kabi ustuvor vazifalarni bir tizimda birlashtirish nazarda tutilgan.

2-jadvalda pillachilik klasterini institutsional investitsiya nuqtayi nazaridan tarkibiy va strategik tahlil qilish yoritilgan. Har bir bosqichdagi investitsiya siyosatining aniq maqsadlari, tegishli instrumentlari va kutilgan institutsional natijalari ko'rsatilgan (2-jadval).

<sup>5</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval. Pillachilik klasterining qiymat zanjiri bo'ylab institutsional investitsiyalash modeli<sup>6</sup>

| Qiymat zanjiri bosqichi                                | Investitsiya yo'nalishi (maqsad)                                | Qo'llaniladigan instrumentlar                                                              | Institutsional natija va samara                                                     |
|--------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-bosqich: Tutzorlarni tiklash va raqamlashtirish      | Barqaror va sifatli xom ashyoni ta'minlash                      | - Yer-soliq bo'yicha 10 yillik imtiyoz;<br>- IoT texnologiyalari uchun 15% gacha subsidiya | Agro-raqamlashtirish, xom ashyoni sifat va hajmda barqaror ta'minlash               |
| 2-bosqich: Chig'iriq va ip ishlab chiqarish            | Mahalliy qayta ishlash salohiyatini rivojlantirish              | - 2% stavkada imtiyozli kredit;<br>- ESG* sertifikati bilan foizda 0.5% chegirma           | Ekologik standartlarga moslashuv, energiya samaradorligi, ish o'rinlari yaratilishi |
| 3-bosqich: Matoni qayta ishlash va tayyor mahsulot     | Qo'shimcha qiymatni mamlakat ichida shakllantirish              | - xususiy sarmoyaga nisbatan 1:0.3 moslashgan davlat granti                                | To'qimachilik modernizatsiyasi, mahalliy ishlab chiqarish salohiyati oshishi        |
| 4-bosqich: Dizayn, marketing va eksport infratuzilmasi | Eksportbop mahsulot ishlab chiqarish va bozorda mustahkamlanish | - yangi eksport shartnomasi qiymatining 5%ni davlat kafolati sifatida                      | Kreativ mahsulot, xalqaro standartlar, eksport salohiyatini kengaytirish            |

Izoh: \*ESG — bu Environmental, Social and Governance (ya'ni ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) so'zlarining qisqartmasi bo'lib, investitsiyalar, biznes strategiyalari va korporativ siyosatni baholashda zamonaviy, jahon miqyosida qabul qilingan mezonlar to'plamidir. ESG tamoyillari kompaniya yoki tarmoq faoliyatini nafaqat moliyaviy samaradorlik nuqtayi nazaridan, balki barqarorlik va jamiyatga ta'siri nuqtayi nazaridan ham baholaydi.

Taklif etilayotgan institutsional investitsiyalash modeli orqali pillachilik klasterining har bir segmenti strategik ravishda qo'llab-quvvatlanadi. Mazkur yondashuv tarmoqni nafaqat iqtisodiy jihatdan samarali tashkil etish, balki institutsional barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardoshlikni oshirish uchun zamin yaratadi. Investitsiya yo'nalishlarining institutsional maqsadlar bilan uyg'unlashtirilishi esa klaster bo'ylab vertikal integratsiya, sifat nazorati va eksportboplikni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Shuningdek, klaster asosida joriy etiladigan investitsiya siyosatining institutsional samaradorligini baholashda aniq, shaffof va raqamlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun "Silk Digital Platform" nomli shartli raqamli kuzatuv tizimini joriy etish maqsadga muvofiq sanaladi. Mazkur platforma pillachilik tarmog'ida sarmoya kiritilgan yo'nalishlar va davlat qo'llab-quvvatlovi qay darajada manfaatli bo'lganini aniq hisoblab, uni real vaqtda banklar, davlat organlari va loyiha manfaatdorlari uchun ochiq tarzda ko'rsatib boradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro amaliyot va ilmiy tadqiqotlardan kelib chiqqan holda, ushbu muammoni bartaraf etish uchun qiymat zanjiri bo'ylab bosqichma-bosqich va mutanosib investitsiyalash mexanizmini joriy etish zarur. Xususan, davlat, xususiy va jamoat institutlari o'rtasida institutsional muvofiqlashuvga asoslangan investitsiya modeli taklif etildi. Ushbu model investitsiyalarni sektorning barcha bo'g'inlariga yo'naltirish, raqamli monitoring va ESG mezonlari orqali baholash hamda ijtimoiy-iqtisodiy foydani oshirish imkonini beradi.

Mazkur yondashuv doirasida quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

- bosqichma-bosqich moliyalashtirish mexanizmlari: soliq imtiyozlari, grant va kredit kombinatsiyalari, "Silk Design Voucher" kabi eksport kafolat vositalari orqali sarmoya taqsimotining maqsadliligi ta'minlanadi;
- xususiy investitsiyani rag'batlantirish: to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar o'rni davlat ishtirokining katalizator funksiyasiga e'tibor qaratish, xususan Italiya tajribasiga asoslangan moslashuvchan grant modelini joriy etish;
- Silk Digital Platform orqali raqamli baholash tizimini joriy etish: Iqtisodiy ortiqcha qiymat (IOQ), Yashil umumiy unumdorlik (YAUU), Investitsiya ijtimoiy foydasi (IIF) va Eksport sifati indeksi (ESI) ko'rsatkichlari asosida loyihalarni shaffof baholash va zarur hollarda tuzatish imkoniyatini yaratish;
- kasanachilikni raymiylashtirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali ayollar va yoshlar uchun barqaror bandlikka erishish;
- xalqaro moliyaviy instrumentlardan foydalanish: ESG-bondlar va islomiy sukuk orqali uzoq muddatli sarmoyalarni jalb qilish va valyuta tavakkalchiliklarini moliyaviy vositalar orqali himoyalash (xedjlash).

Shunday qilib, taklif etilgan institutsional investitsiyalash modeli orqali pillachilik tarmog'i xom ashyo eksportidan yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich o'tishi, davlat-xususiy sheriklikning samaradorligi oshishi hamda qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun mustahkam asos yaratiladi.

<sup>6</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M. Zhao, X. Zhang, L. Fang. Sericulture Industry Development in China. – Beijing: China Agricultural University Press, 2018.-214 b.
2. G. Basavaraja, N. B. Vijaya Kumar. Economics of Sericulture. – New Delhi: Sericulture Research Institute, 2017.-188 b.
3. Ravindra Kumar. Sericulture Economics and Policy in India. – Singapore: Springer, 2020.-242 b.
4. A. Baser, E. Öztürk. Silk Industry and Cluster Policies in Turkey. – Istanbul: Istanbul University Press, 2019.-203 b.
5. M. E. Porter. Competitive Advantage. – New York: Free Press, 1985.-557 b.
6. R. Kaplinsky, M. Morris. A Handbook for Value Chain Research. – Ottawa: IDRC, 2002.-121 b.
7. T. Ibragimov. Agricultural Clusters and Value Chain Development in Uzbekistan. – T.: Fan, 2021.-176 b.
8. Sh. Mamasulov. Agroindustrial Cluster Integration. – T.: Yangi Asr Avlodi, 2022.-164 b.
9. Z. Yuldasheva. Investment Mechanisms in Agro-Industrial Development. – T.: Iqtisodiyot, 2020.-192 b.
10. FAO. Global Silk Market and Value Chain Assessment. – Rome: FAO Publications, 2019.-98 b.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---